

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BIZNESNI BOSHQARISH VA LOGISTIKA”
KAFEDRASI

Qo'lyozmahuquqi asosida
UDK: 658.01(575.1)

Qo'chqarova Gulruh Muxtarbekovna
KOMPANIYALARNI STRATEGIK BOSHQARISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH

70411302-Biznesni boshqarish (Master of Business Administration-MBA)
mutaxassisligi bo'yicha

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n. dotsent D.N.Ishmanova

TOSHKENT-2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 35 - sonli bayonnoma «10» 05 2023 y.

Kafedra/mudiri: i.f.d. U.V.G'ofurov

U.V.G'ofurov
imzo 12.05
sana

Ilmiy rahbar: dot. D.N.Ishmanova

D.N.Ishmanova
imzo 11.05
Sana

Magistr: G.M.Qo'chqarova

G.M.Qo'chqarova
imzo 10.05
Sana

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizning aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, ularning strategik boshqaruv modellarni o'z faoliyatidan kelib chiqib eng optimal shaklini tanlash, tashkilotda strategik boshqaruvni to'g'ri tashkil qilish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga davlat aralashuvini kamaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilmiy ishimizda nafaqat nazariy fikrlar, balki "O'zagrolizing" AJ uning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan yaqindan tanishib, tahlil jarayonida o'rganildi. O'rgangan ma'lumotlarimiz va tahlil natijalarimizdan kelib chiqib, aksionerlik kompaniyalarida strategik boshqarishning o'rni va ulardan yanada to'g'ri va samaraliroq foydalanish yuzasidan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik. Strategik boshqaruv jarayonini tashkilotda muhim qarorlar qabul qilish o'z navbatida obyektiv, mantiqiy, tizimli yondashuv sifatida tavsiflash mumkin. Bunday boshqaruv esa faoliyatni noaniqlikdan sifatli va miqdoriy ma'lumotlar sharoitlarida samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradigan tarzda tashkil etishga harakat qiladi. Strategik menejment raqobatbardosh ustunlikka erishish va uni saqlab qolishdan iborat. Bu atamani "kompaniya raqobatchilarga nisbatan o'z foydasiga juda yaxshi qo'llay oladigan har qanday narsa" deb ta'riflash mumkin. Qachonki firma raqib firmalar qila olmaydigan narsani qila olsa yoki raqobatchi firmalarga egalik qilish istagi bo'lsa, bu raqobatdosh ustunlikni ifodalashi mumkin. Iqtisodchi olim A.Smitning "Ko'rinmas qo'l" nazariyasida har bir yakka shaxs o'z manfaatini ko'zlab faoliyat yuritadi ammo o'zi bilib bilmay jamiyat manfaatiga ijobiy foyda keltiradi. Ana o'sha insonning shaxsiy hayotida o'z vaqtiga nisbatan strategik boshqaruvning qo'llanilishi uni kelgusidagi kutayotgan natijasini kafolati deya qarajak, kompaniyalar faoliyatida strategik boshqarish tizimini to'g'ri amalga oshirish hamda davlatdagi kompaniyalar huddi Smitning nazariyasidagi yakka shaxs misolida o'z manfatlari orqasidan quvib davlatni qanchalik rivojlanish darajasiga ko'tarishga zamin yarata olishadi. Shunday ekan Strategik menejment bu juda muhim hisoblanadi, rivojlanish uchun boshlanish nuqtadir deya aytish mumkin.

Kalit so'zlar: *Strategik boshqaruv, kapital, dividend, operatsion boshqaruv, ichki va tashqi omillar, rejalashtirish, strategiyani ishlab chiqish, tizim.*

SUMMARY

Special attention is being paid to fundamental reform of the management system in joint-stock companies of our country, choosing the most optimal form of strategic management models based on their own activities, correct organization of strategic management in the organization, and reducing state interference in the activities of joint-stock companies. In our scientific work, not only theoretical ideas, but also "Ozagrolizing" JSC was closely acquainted with its main economic indicator and studied in the process of analysis. Based on the information we have learned and the results of our analysis, we have developed conclusions, proposals and recommendations regarding the role of strategic management in joint stock companies and their more correct and effective use. The process of strategic management can be characterized as an objective, logical, systematic approach to making important decisions in the organization. Such management tries to organize activities in a way that allows effective decision-making in conditions of qualitative and quantitative data from uncertainty. Strategic management is about achieving and maintaining a competitive advantage. The term can be defined as "anything that a firm can use to its advantage over its competitors." When a firm can do something that rival firms can't or has a desire to own rival firms, it can represent a competitive advantage. According to economist A. Smith's "Invisible hand" theory, each individual acts for his own benefit, but unknowingly brings positive benefits to society. If we consider that the application of strategic management in the personal life of that person in relation to his time is a guarantee of the result he expects in the future, the correct implementation of the strategic management system in the activities of companies and the companies in the state, in the example of a single person in Smith's theory, have their own interests. chasing after them, they can create a basis for raising the state to the level of development. Therefore, strategic management is very important, development can be said to be the starting point.

Keywords: *Strategic management, capital, dividend, operational management, internal and external factors, planning, strategy development, system.*

Mundarija

ANNOTATSIYA.....	3
KELTIRILGAN JADVALLAR RO`YXATI.....	Ошибка! Закладка не определена.
KELTIRILGAN RASMLAR RO`YXATI....	Ошибка! Закладка не определена.
KELTIRILGAN QISQARTMALAR.....	9
I BOB. KIRISH	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	11
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	Ошибка! Закладка не определена.
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	Ошибка! Закладка не определена.
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti.....	13
1.5. Tadqiqotning ilmiy yangiligi	Ошибка! Закладка не определена.
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	15
2.1. Kirish	15
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	15
2.3. Mahalliy me`yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	21
III-bob. TADQIQOT METODOLIGIYASI	29
3.1. Tadqiqot dizayni	29
3.2. Ma`lumotlarni to`plash jarayoni.....	29
3.3. Tahlil uchun qo`llaniladigan usullar.....	29
3.4. Tadqiqotni o`tkazish uchun zarur sharoitlar.....	30
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	31
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	31
IV-bob. TAHLIL VA NATIJALAR	33
4.1. O`zagrolizing AJ strategik boshqarish jarayoning mazmuni, korxonani istiqbolini belgilashning muhim omili sifatida	Ошибка! Закладка не определена.

4.2. Aksionerlik jamiyati kompaniyalari strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha jahon tajribasi.....	Ошибка! Закладка не определена.
4.3. Aksionerlik kompaniyalarni strategik boshqarish mexanizmini takomillashtirish.	Ошибка! Закладка не определена.
4.4. Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	70
V-bob. XULOSA	71
5.1. Tadqiqot savoliga tegishi natijalarning qisqacha tavsifi	71
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	71
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	74

I BOB.KIRISH

Zamonaviy dunyo jadal rivojlanib borayotgan bir paytda strategiyaning muhimligi va uni tog'ri ishlab chiqishdan ko'riladigan natijalar ko'pincha yetarlicha darajada to'g'ri baholanmaydi. Strategik boshqarish 3 ming yildan beri davlatlar boshqaruvi hamda harbiy yurishlarda foydalanilib kelinishiga qaramasdan uning qanchalik kuchga ega ekanligi hamda uni qanday qo'llash haqida yetarlicha bilim va ko'nikmalar mavjud emas. Shuning uchun ham strategik boshqarish rivojlanishning ilk pillapoyalarini bosib o'tmoqda. Strategik boshqaruvning ulkan tarixini quyidagilardan bilishimiz mumkin. Masalan Rimlik davlat arbobi va lashkarboshi Cekt Yuliy Frontin(eramizning I asri) o'zining "Strategemi" kitobining dastlabki 2 ta bobini strategik boshqaruvning ahamiyatiga bag'ishlagan, ushbu boblarda u raqibning rejasini aniqlab olmaguncha o'z strategiyasini sir tutish kerak deya ta'kidlaydi(Kvint V.L, 2018-y)

Dunyo bir vaqtning o'zida bir nechta davrlarning o'zaro kelishi va mavjudligi tufayli yuzaga keladi, ya'ni hozirgi vaqtda postindustrial (axborot) jamiyatining shakllanish jarayoni sodir bo'lmoqda, garchi vaqtning sanoat davri sifat jihatidan yangi shaklda taqdim etilgan bo'lsada. Inson resurslari sifat jihatidan yangi darajaga ko'tariladi. Yangi ijodiy iqtisodiyotning asosiy va semantik markazi bunyodkorlik, shaxs yaratadigan ma'lum bir g'oyadir. Aynan inson resurslarining ijodiy salohiyati mavjud shakllanishning generativ markazi tomonidan ifodalanadi. Shaxsning ijodiy salohiyati yangilikni keltirib chiqaradi, yangi kashfiyotlar va g'oyalarni keltirib chiqaradi, murakkab muammolarni samarali hal qila oladi, eng muhimi, ularni qat'iy va darhol amalga oshiradi. Bunday yondashuvda endi axborot emas, balki yangi g'oyalarni yaratuvchi va ularni hayotga tatbiq etuvchi ijodkor odamlar asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, aynan ijodkorlik shaxsning hisoblangan resursi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlanishining harakatlantiruvchi omilidir. Shuni aytish joizki strategik boshqaruv tamoyillarini to'g'ri belgilash va boshqaruv mexanizmining samarali amal qilishini ta'minlashdan kutilayotgan asosiy maqsad bozor iqtisodiyotda yuz berishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi nomutanosibliklar va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari, hamda xom-